

ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIKDA PSIXOLINGVISTIKA

Fayziyeva Hafiza Alisher qizi
Namangan davlat pedagogika
instituti 2-Kurs magistranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada antroposentrik tilshunoslik, uning tadqiqi, mazkur tarmoqning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixolingvistika, uning rivojlanish yo‘li va bosqichlari, shuningdek, mazkur tarmoq yuzasidan ish olib borgan olimlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: antroposentrik tilshunoslik, psixolingvitika, paradigma, kognitiv tilshunoslik

ANNOTATION. This article discusses anthroposentric linguistics, its research, psycholinguistics, one of the areas of this field, its development path and stages, as well as scientists who have worked in this field.

Key words: anthroposentric linguistics, psycholinguistics, paradigm, cognitive linguistics.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается антропоцентрическая лингвистика, её исследования, психолингвистика, одно из направлений этой области, путь и этапы её развития, а также учёные, работавшие в этой области.

Ключи слова: антропоцентрическая лингвистика, психолингвистика, парадигма, когнитивная лингвистика.

Har bir fan tarmog‘ining muayyan xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladigan bir qator yo‘nalishlari bo‘ladi. Antroposentrik tilshunoslik ham o‘z qamrab oladigan mavzu doirasi, o‘rganilish obyektiga ko‘ra bir qancha guruhlariga bo‘lindi. Ulardan biri psixolingvistikadir.

Psixolingvistika yo‘nalishi antroposentrik tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari: lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi tilga inson omili nuqtayi nazaridan yondashuv asosida shakllandi. Ya’ni dastlab tilshunoslik ilk rivojlangan paytlarda tilshunoslikka shunchaki grammatik qurilmalardan iborat sistema sifatida qaralar edi. Tilga nisbatan inson yondashuvi umuman hisobga olinmagan.

XX asrdan boshlab esa til insonlar o‘rtasida muayyan axborotlarni almashadigan aloqa quroli bo‘lishi bilan bir qatorda shaxsning holatini, kayfiyatini, bilimlarini, insonning milliy o‘ziga xosligi va boshqa shu kabi bir qator omillarni o‘zida aks ettiruvchi sifatida qarala boshlandi. Natijada bir qator tarmoqlarga ega bo‘lgan antroposentrik tilshunoslik rivojlandi.

Professor Shaxriyor Safarov antroposentrik tilshunoslik haqida soʻz ketganda quyidagicha yozadi: “Sistem-struktur paradigma oʻzidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, yaʼni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yoʻlini tutdi. Sistem-struktur yoʻnalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham maʼlum boʻldi: bu yoʻnalishlarda til oʻz egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yoʻqotish yoʻlidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab boʻldi”.¹

Antroposentrik tilshunoslik markazida insonni qoʻyuvchi taʼlimot sifatida shakllandi va oʻziga xos bir qator tarmoqlarga boʻlindi. Yuqorida taʼkid etganimizdek, markazdagi inson qaysi nuqtayi nazar bilan tahlil qilinishiga koʻra bir qancha yoʻnalishlar bilan boyidi. Antroposentrik tilshunoslikning tarmoqlaridan sanalgan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmaning yetakchi yoʻnalishlari hisoblanadi.² Xuddi shular qatori psixolingvistika yoʻnalishi ham antroposentrik tilshunoslikning bir qator yutuqlarga erishgan va rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biridir.

Shu oʻrinda tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlari aynan mavzu nuqtayi nazaridan juda mosdir: “Tilning faqat va faqat kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, joʻnlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy ruhiy zamindan mosuvo boʻlgan sunʼiy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yoʻl harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuygʻu va kechinmalari, quvonch va qaygʻulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni koʻzda tutmaydi”.³

Darhaqiqat, “til insoniy his-tuygʻularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega boʻlganligi uchun ham oʻquvchining tuygʻularini “boshqara oladi” – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi”.⁴

Psixolingvistika yoʻnalishi haqida oʻzimizning bir qator fikrlarimizni berishdan oldin bu soʻzning kelib chiqishiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, psixolingvistika soʻzini birinchi boʻlib, amerikalik psixolog N.Pronko 1946-yil chop etilgan maqolasining sarlavhasida qoʻllagan boʻlsa ham, bu atama 1953-yilga kelibgina Amerikaning Indiana shtati Blumington shahrida oʻtkazilgan universitetlararo tadqiqiy seminarda

¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б.35.

² Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. - №5. –Б.3-16.

³ Юлдашев М.М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. Фанлари д-ри...лисс. –Тошкент, 2009. – Б. 104.

⁴ Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б. 63.

alohida fan, ilmiy nazariya nomi sifatida mazmun va mohiyat kasb etdi. Seminar tashkilotchilari taniqli amerikalik psixologlar J.Kerrol va Ch.Osgud, tilshunos, etnograf T.Silbeok edi. Ikki oy davom etgan tadqiqotlar, bahs va munozaralar mahsuli sifatida “Psixolingvistika nazariy va tadqiqiy muammolar haqida ocherk” nomli kollektiv to‘plam chop etildi va juda kata shov-shuvga sabab bo‘ldi.⁵

S.S.Mo‘minov psixolingvistika haqida o‘zining quyidagi fikrlarini bayon etadi: “Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog‘liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta’sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta’sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi”.⁶

Quyidagi misol yuqoridagi fikrlarni yana bir bor isbotlaydi:

“Oradan ko‘p o‘tmay, mister Bingli baldagi hamma mehmonlar bilan tanishib oldi. U juda ochiqko‘ngil, mehmonnavoz bo‘lib, ziyofatning bunchalik tez tugab qolganidan afsusda ekanligini bildirib qo‘ydi va hatto Nezerfildda ham bal o‘tkazilsa, ko‘ngildagidek ish bo‘lishini gap o‘rtasida qistirib ketdi. U bilan do‘sti o‘rtasida yer bilan osmonchalik farq bor edi. Mister Darsi butun kecha davomida faqat missis Xyorst bilan bir marta va miss Bingli bilan bir martagina raqsga tushdi. O‘zini boshqa ayollar bilan tanishtirishlarini istamad va kechaning qolgan qismini o‘zi bilan birga kelganlar bilan gaplashib o‘tirib o‘tkazdi. Uning o‘zini tutishini hamma gapirdi. Uni bir ovozdan dunyodagi eng gerdaygan va yoqimsiz erkak deb topishdi va bu yerlarda endi boshqa ko‘rinmaydi, deb umid bildirishdi. Yigitni yomonga chiqarganlardan biri missis Bennet edi. Ayniqsa, mister Darsining uning qizlaridan biriga e’tiborsiz qaraganligi ayolga juda alam qilib ketgandi”.

Yuqoridagi parcha Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” asaridan olingan misol bo‘lib, ikki qahramonga yetarlicha ta’rif berilgan. Parchani o‘qir ekansiz, asar qahramonlarining ruhiyati sizga ochiladi. Personajlarning har ikkisi ham kiborlar olamiga mansub, nihoyatda boy insonlar. Biroq ularning xarakterlari turlicha. Bu ularning nafaqat harakatlarida, balki ntqida ham namoyon bo‘ladi. Quyidagi berilgan dialog ularning ruhiyatini yanada to‘liqroq tasavvur qilishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, antroposentrik tilshunoslikning boshqa tarmoqlari qatori psixolingvistika yo‘nalishi ham o‘ziga xos tamoyil-u prinsiplarga ega bo‘lib, mazkur yo‘nalish inson ruhiyatini o‘zida ifodalashi bilan boshqalaridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁵ Boboxonova D. Psixolingvistika fanidan ma’ruzalar matni. – Namangan, 2019. – B.29.

⁶ Мўминов С.М. Ўзбе мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри...дис.автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000. – Б.19-20.

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б.35.
2. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. - №5. –Б.3-16.
3. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. Фанлари д-ри...лисс. –Тошкент, 2009. – Б. 104.
4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б. 63.
5. Boboxonova D. Psixolingvistika fanidan ma’ruzalar matni. – Namangan, 2019. – B.29.
6. Мўминов С.М. Ўзбе мулоқот ҳуққининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри...дис.автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2000. – Б.19-20.